

## TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA XORIJ TAJIRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Murodova Dilnoza Choriyevna  
Toshkent moliya instituti  
"Bank ishi" kafedrasida dotsenti PhD  
Email: dilnoz88.murodova@mail.ru  
+998909093214

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-iyun 2023-yil  
**Tasdiqlandi:** 26-iyun 2023-yil  
**Jurnal soni:** 7  
**Maqola raqami:** 8  
**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v7i7.774>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Federal Zaxira Tizimi, Federal Zaxira Banki Direktorlar Kengashi, Federal Ochiq Bozor Qo'mitasi, monetar siyosat, diskont siyosat, ochiq bozor siyosat, REPO operatsiya

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish bo'yicha xorij tajribasi joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kirish** Tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish, banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish, 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish ko'zda tutilgan<sup>64</sup>.

Rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish natijasida tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan bir qator dolzarb muammolar mavjud. Xususan, qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxira stavkasining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining likvidlik darajasini oshirishga va umumiy talabni rag'batlantirishga xizmat qilsada, aksincha, mazkur stavkalarining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini pasaytiradi va umumiy talabning qisqarishiga sabab bo'lishi shular jumlasidandir.

**Adabiyotlar tahlili.** AQSh Federal zaxira tizimi (FZT) tijorat banklarining faoliyatini monetar siyosat doirasida tartibga solishda diskont siyosati va ochiq bozor siyosatidan faol tarzda foydalanadi.

AQSh FZB tomonidan diskont stavkasida beriladigan kreditlar uch turda amalga oshiriladi. Birlamchi (asosiy) tur kreditlari faqat ishonchli depozit muassasalariga ma'lum bir vaqtga (odatda, bir necha soatga) yoki vaziyat taqozosiga ko'ra uzoqroq muddatga berilishi mumkin. Ushbu depozit muassasalarining ishonchligini aniqlash uchun HFZB tomonidan ularning moliyaviy ahvoli yuzasidan muntazam monitoring olib boriladi, reyting yuritiladi. Depozit muassasalari ushbu qarz mablag'larini asosan moliyalashtirishning zaxira manbasi sifatida qarashadi va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanishmaydi.

Ushbu birinchi tur qarz mablag'i asosiy manba hisoblangani bois ham AQSh FZB leksikonida uni "diskontlangan stavka" deyishadi.

Ikkilamchi tur kreditlari barqaror depozit muassasalariga berilib, ularning diskont stavkasi ishonchli depozit muassasalariga beriladigan diskont stavkasidan 50 foiz punktga yuqoriroq, ba'zi hollarda esa vaziyat taqozosiga ko'ra undanda yuqoriroq bo'lishi mumkin. Ushbu

turdagi kreditlarning muddati bir kungachani tashkil qiladi. Depozit muassasalarining barqarorligini aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvoli doimiy monitoring qilinadi va reyting asosida baholanadi. Mazkur kreditlar likvidlik tanqisligini oldini olish maqsadida jalb qilinadi. Ulardan depozit muassasalarining aktivlarini moliyalashtirishda foydalanish mumkin emas.

Uchinchi, ya'ni mavsumiy tur kreditlari uncha katta bo'lmagan depozit muassasalariga o'z kredit va depozit operatsiyalaridagi mavsumiy nomutanosibliklarning oldini olish uchun beriladi. Bunda ushbu depozit muassasalari mavsumiy tebranishlarga xos bo'lgan holatlarni aniq asoslab berishlari lozim. Odatda bunday muassasalar qishloq xo'jaligi sohasiga yoki turistik salohiyatga ega bo'lgan joylarda faoliyat ko'rsatadigan xo'jalik subyektlariga xizmat ko'rsatishadi. Mazkur kreditning diskont stavkasi bozor stavkasiga teng bo'ladi<sup>65</sup>.

Kredit olish shartlari. Qonunchilikka ko'ra, majburiy zaxira me'yorlariga tortiladigan depozit hisob raqamlariga ega bo'lgan depozit muassasalari (banklar) hamda AQShning chet eldagi filial yoki agentlik sifatida faoliyat ko'rsatadigan banklari ham ushbu diskont kredit mablag'laridan bir xil shartlar asosida foydalanishlari mumkin. Diskont kredit mablag'lari muayyan garov shartlari asosida beriladi. Garov sifatida esa normativ me'yorlarga javob beradigan har qanday aktivlar olinishi mumkin. Xususan, yuqori likvidlik qimmatli qog'ozlar, qarz majburiyatlari kabilar shular jumlasidandir<sup>66</sup>. HFZB ushbu garov ta'minotiga egalik qilish va uni tasaruf etish huquqini to'liq ta'minlashi lozim. Zaruriyat hollarda (defolt holatida) ushbu garov ta'minotlarini diskont darchasi kreditlarini qoplashga yo'naltirish mumkin. Garovga olingan ta'minot garovga beruvchi muassasaning majburiyatidan xoli bo'lishi lozim.

Garov sifatida qabul qilingan aktivlarga AQSh FZB tomonidan muayyan baho (narx) taklif etiladi. Ushbu narx garovga olingan aktivning narxini ifodalab, uning bozor narxidan biroz pastroq narxda olinadi va bu o'z-o'zidan ma'lumki, garovga olingan aktivning bozor narxidan tushib ketishidan himoyalash maqsadida amalga oshiriladi.

AQSh FZTda diskont siyosati monetar siyosatning eng muhim vositalaridan (instrumentlaridan) biri hisoblanar ekan, uning ta'sirida AQSh FZT oldiga qo'yilgan bosh maqsad – maksimal darajada ish joylarini yaratishga ko'maklashish, barqaror narx siyosatini yuritish va uzoq muddatli mo'tadil foiz stavkasini ta'minlash<sup>67</sup> bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimini muvofiqlashtirishga erishishdan

<sup>64</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"gi farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.

<sup>65</sup> Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 486–488.

<sup>66</sup> Murodova M. Central of the bank monetary and credit policy and its macroeconomics importance //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 416–423.

<sup>67</sup> AQSh Kongressi tomonidan AQSh FZTga bildirilgan ishonch va majburiyat hisoblanadi. Ushbu ishonch va majburiyat "AQSh Federal Zaxira Tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq

(1913-yil), AQSh Federal Zaxira Banki Direktorlar Kengashi AQSh Federal Ochiq Bozor Qo'mitasi bilan birgalikda AQSh iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida samarali monetar siyosat olib borilishini muvofiqlashtirishga mas'ul organlar hisoblanishadi. Shuningdek, AQSh FZTning boshqa funksional majburiyatlari ham borki, ular moliyaviy tizim barqarorligini oshirish (4-bo'lim); moliyaviy muassasalar hamda ular faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish (5-bo'lim); to'lov va hisob-kitob tizimining xavfsizligi hamda samaradorligini oshirish (6-bo'lim); iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va jamiyatni rivojlantirishga ko'maklashish (7-bo'lim) hamda barqaror faoliyat yuritadigan moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning farovonligini ta'minlashdir.

iborat. Ushbu instrument asosan taklif omili sifatida Federal zaxira fondining muvozanatli holatini ta'minlashga hamda iqtisodiyotga pul va kreditlar taklif qilishga o'z ta'sirini ko'rsatishga yo'naltirilgandir.

Diskont darchasidan foydalanish amaliyotiga xos xususiyat quyidagichadir. Agar depozit muassasalari (banklar) o'zlarining qisqa muddatli (bir kunlik – overnight) moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini Federal fond bozorida yoki shunga o'xshash bozorlardan qanoatlantirishga erisha olmasa, u holda ular HFZBning ushbu diskont darchasidan foydalanishlari mumkin. Depozit muassasalari tomonidan olingan kredit ularning HFZBdagi balans hisob raqamiga tegishli qayd etiladi.

Diskont darchasidan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalar AQSh Federal zaxira qonunchiligi asosida hamda AQSh FZB Boshqaruv Kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida belgilanadi. Garov ta'minoti qo'yilgandan so'ng AQSh FZBlari tomonidan o'rnatilgan tegishli foiz stavkasida (diskont stavkasida) kreditlar ajratiladi. Mazkur diskont foiz stavkasi qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi mumkin. Depozit muassasalari o'rtasidagi bunday savdolar natijasida shakllanadigan o'rtacha foiz stavkasi – Samarali Federal Fond Stavkasi (SFFS) deb ataladi (Effective Federal Funds Rate – EFFR). SFFS asosan bozor mexanizmi orqali aniqlanadi, ammo unga FZTning ochiq bozor operatsiyalari o'z ta'sirini o'tkaza olganligi sababli FFSning target (Federal Funds Rate Target) stavkasi shakllantiriladi.

FZT REPO operatsiyalarining ikki turidan foydalanadi:

1. To'g'ri REPO.

Bunda, FZT qimmatli qog'ozlarni tijorat banklariga, qaytarib sotib olish sharti bilan, sotadi.

2. Teskari REPO.

Bunda, FZT qimmatli qog'ozlarni tijorat banklaridan, qaytarib sotish sharti bilan, sotib oladi.

AQSh FZT REPO operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

\*FZT REPO operatsiyalarini davlat qimmatli qog'ozlarining ishtirokchilari bo'lgan birlamchi dilerlar (tijorat banklari) bilan amalga oshiradi. Ushbu banklar qimmatli qog'ozlar bozorida yuqori reputatsiyaga va katta tajribaga ega bo'lib, ular REPO operatsiyalarining tezkorligini ta'minlaydi.

\*FZT REPO operatsiyalarini hukumatning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshiradi (FZT manfaatlar to'qnashuvidan qochish maqsadida xususiy kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirmaydi);

\*FZT AQSh G'aznachiligidan uning FZTdagi depozitlarini kutilayotgan darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish yo'li bilan xazinalarning haqiqatdagi taklifga aniqlik kiritadi;

\*FZTning ochiq bozor operatsiyalari bo'yicha menejerlari har ish kuni ertalab birlamchi dilerlar vazifasini bajaruvchi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorining holati to'g'risidagi fikrlarini o'rganadilar. Ushbu fikrlarni o'rganish qimmatli qog'ozlarning kurslarini kun davomida tebranishini oldindan bilish imkonini beradi.

\*FZTning ochiq bozor operatsiyalari bo'yicha mutaxassislari Boshqaruvchilar kengashining "Monetar siyosat" bo'limi bilan bog'lanib, o'zlarining bozordagi xaziralarga bo'lgan talab va xaziralari taklifi bo'yicha prognozlarini ushbu bo'limning prognozlarini bilan taqqoslaydi. Buning natijasida qimmatli qog'ozlar bozorida harakat rejasini ishlab chiqiladi<sup>68</sup>.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ekspertlari tomonidan muammoli kreditlarning darajasini tavsiflovchi quyidagi ko'rsatkichlar taklif qilingan:

– kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalari darajasi (ushbu ko'rsatkichning yuqori me'yoriy darajasi – 1,0%);

– muddati o'tgan kreditlarning mo'tadil darajasi (mazkur ko'rsatkichning yuqori me'yoriy chegarasi – 3,0%);

– muddati o'tgan kreditlarning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy darajasi (ushbu ko'rsatkichning yuqori me'yoriy darajasi – 5,0%)<sup>69</sup>.

A.Forestning fikriga ko'ra, kredit olgan mijozlarning defolt bo'lish ehtimolini baholash aniqligini oshirish uchun mijozlarni kredit to'loviga layoqatligi bo'yicha yagona mezonlar asosida guruhlarga ajratish lozim<sup>70</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy tadqiqotni bajarishda statistik guruhlash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy maqolani yozishda AQSh Federal zaxira tizimining statistik ma'lumotlaridan, xalqaro ekspertlarning ilmiy-tadqiqotlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda markaziy banklar tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning baholarini tartibga solishda monetar siyosat instrumentlaridan va ssuda kapitalari bozorida keng foydalanadi.

Hozirgi davrla kunlik operatsiyalar hajmi bo'yicha London ssuda kapitalari bozori dunyodagi eng katta xalqaro ssuda kapitalari bozori hisoblanadi. London xalqaro ssuda kapitalari bozorida beshta yetakchi valyutadagi – USD, EUR, JPY, GBP, CHF depozitlar va kreditlarning bozor stavkasi aniqlanadi. Buyuk Britaniya Bank assotsiatsiyasi – Thomson Reuters mahalliy London vaqti bilan 11.30 da 16 ta birinchi toifali banklarga (Prime banks) qo'ng'iroq qilib, ulardan 1 oydan 1 yilgacha muddatdagi takliflarining foiz stavkalarini so'raydi. To'rtta eng yuqori va to'rtta eng past foiz stavka olib tashlanadi. Qolgan foiz stavkalari bo'yicha o'rta arifmetik usul bilan LIBOR stavkasi aniqlanadi.

E'tirof etish joizki, jalb qilingan mablag'larning qiymati, ya'ni ularga to'lanadigan foizlarning stavkalari "koll" opsiyalarining premiyasi miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, bunda ushbu omilning ta'sirini cheklanganligini hisobga olish zarur, ya'ni portfelda opsiyalar pozitsiyasining uncha katta bo'lmagan ulushi ham foiz stavkalari darajasini o'zgartira oladi<sup>71</sup>.

"Black-Scholes" modeliga ko'ra:

– "Call" opsiyalar bazaviy aktivga opsiyalar butun amal qilish muddati davomida dividendlar to'lanmaydi;

– opsiyalar sotib olish yoki sotish bilan bog'liq bo'lgan transaksiyon chiqimlar mavjud emas;

– qisqa muddatli risksiz foiz stavkasi opsiyalar butun muddati mobaynida o'zgarasdir;

– qisqa muddatli sotishga cheklolovsars ruxsat etiladi va bunda sotuvchi ta'minotsiz sotilgan qimmatli qog'ozning joriy bahodagi summasini birdan va to'liq oladi<sup>72</sup>.

**Tadqiqot natijalar.** FZT amaliyotida Federal Ochiq Bozor Qo'mitasi – FOBQ (Federal Open Market Committee – FOMC) faoliyat yuritib, u asosan xazira talablari va federal fond foiz stavkalarini belgilashda hamda ular orqali iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga (pul, kreditlar) bo'lgan talab va taklifini muvofiqlashtirishda muhim institut hisoblanadi.

Mazkur institut diskont stavkasini belgilashda bevosita vakolatli hisoblanmasada, ammo uni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uning xulosa va takliflari AQSh FZB Direktorlar Kengashi tomonidan o'rganilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

**1-jadval**

**AQShda YaIMning yillik o'sish sur'ati, inflyatsiyaning yillik darajasi va Federal zaxira tizimining diskont stavkasi<sup>73</sup> foizda**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2017	2018	2019	2020	2021
YaIMning o'sish sur'ati	2,3	2,9	2,3	- 3,4	5,7
Inflyatsiya darajasi	2,1	1,9	2,3	0,1	4,7
Federal zaxira tizimining diskont stavkasi	1,5	2,5	1,75	0,25	0,75

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2018-2020-yillarda AQSh YaIMning o'sish sur'atini pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Ammo, 2021-yilda YaIMning o'sish sur'ati 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Biroq, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda

2019-yilga nisbatan pasaygan. Bu esa, asosan, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

\*Xitoy bilan davom etayotgan savdo urushi natijasida zarar ko'rilayotganligi;

<sup>68</sup> Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 483–484.

<sup>69</sup> [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki).

<sup>70</sup> Forrest A. Likelihood Approaches to Low Default Portfolio/Workshop on Financial Engineering 2009. – New Jersey: World Scientific, 2010. – pp. 43–63.

<sup>71</sup> Чекулаев М. Загадки и тайны опционной торговли. М.: ИК Аналитика, 2001. – С. 10.

<sup>72</sup> Black F., Scholes M. The pricing of options and corporate liabilities // The Journal of Political Economy. May - June, 1973. Vol. 81 (Issue 3). – P. 637-654.

<sup>73</sup> <https://www.federalreserve.gov/savti> (AQSh Federal zaxira tizimi) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

\*2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli AQSh va jahon iqtisodiyoti o'sishining sekinlashganligi.

2017-2020-yillarda AQShda inflyatsiyaning yillik darajasi mo'tadil bo'lgan, ya'ni inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizdan oshmagan. Bu esa, pullar taklifini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Biroq, 2021-yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 2017-yilga nisbatan sezilarli


darajada oshgan. FZTning diskont stavkasi 2018-2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda inflyatsiya darajasining oshishiga yo'l qo'ymaslikning zarurligi bilan izohlanadi. 2021-yilda FZTning diskont stavkasi 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada oshirilgan. Bu esa, mazkur davrda inflyatsiya darajasini keskin oshganligi bilan izohlanadi.



1-rasm. Bank of Americaning pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlari dinamikasi va darajasi<sup>74</sup>, foizda

1-rasm ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Bank of America aktivlarining umumiy hajmida pul ko'rinishidagi yuqori likvidli aktivlarining ulushini 2021-yilda 2018-yilga nisbatan 4,1 foizli punktga oshganligi ushbu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Ammo, 2021-yilda Bank of America bankining pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarining miqdori 2020-yilga nisbatan 32,2 mlrd. dollarga

kamaygan, pul shaklidagi yuqori likvidli aktivlarining jami aktivlardagi ulushi ham 2,5 foizli punktga pasaygan. Bu esa ushbu bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida salbiy holat hisoblanadi. Bank of America bankining to'lovga qobilligiga baho berish maqsadida regulyativ kapitalning passivlari hajmidagi salmog'i ko'rsatkichini tahlil qilamiz.



2-rasm. Bank of Americaning passivlari, regulyativ kapitali va uning passivlar hajmidagi salmog'i<sup>75</sup>, foizda

Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, 2021-yilda 2018-yilga nisbatan Bank of America bankining passivlarining o'sish sur'ati 34,6 foizni tashkil etgani holda, uning regulyativ kapitalini o'sish sur'ati 2,3 foizni tashkil etgan. Bu esa, banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasida salbiy holat hisoblanadi. Bank of America passivlarining umumiy hajmida regulyativ kapitalning salmog'i 2021-yilda 2018-yilga nisbatan 2,4 foizli punktga oshgan. Bu esa, uning investitsion jozibadorligini ta'minlash borasida ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, regulyativ kapitalning passivlar tarkibidagi hajmi qancha ko'p bo'lsa, bankning to'lovga qobillik darajasi shuncha mustahkam bo'ladi.

Yaponiya Markaziy banki ochiq bozor siyosatini amalga oshirish yo'li bilan milliy bank tizimining zaxiralariga ikki usul bilan ta'sir qiladi:

1. Agar Yaponiya Markaziy banki tijorat banklarining likvidligini oshirishni va milliy valyutadagi pullarning taklifini oshirishni maqsad qilib olgan bo'lsa, u holda, Markaziy bank bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunda

Markaziy bank qimmatli qog'ozlarga qat'iy belgilangan kurs o'rnatishi va kurs shu belgilangan darajaga yetishi bilan taklif qilingan barcha qimmatli qog'ozlarni sotib olish yo'lidan foydalanishi mumkin. Yoki Yaponiya Markaziy banki taklif etilgan paytdagi kursning qanday bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlarni sotish olish miqdorini belgilashi mumkin.

2. Yaponiya Markaziy banki milliy bank tizimidagi ortiqcha likvidlikni kamaytirishni maqsad qilib olgan bo'lsa, u holda, Markaziy bank qimmatli qog'ozlar bozorida sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunda ham Markaziy bank ikki imkoniyatga ega bo'ladi:

– Yaponiya Markaziy banki ma'lum kursni e'lon qilishi va qimmatli qog'ozlarning kursi e'lon qilingan darajaga yetishi bilan istalgan miqdordagi qimmatli qog'ozni sotish majburiyatini oladi;

– Yaponiya Markaziy banki qo'shimcha tarzda ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozni sotish majburiyatini oladi. Buning natijasida davlatning qimmatli qog'ozlaridan va boshqa yuqori likvidli qimmatli qog'ozlardan keladigan daromadlarning miqdori oshadi va

<sup>74</sup> Annual Reports. Consolidated Balance Sheet. <http://www.bankofamerica.com> (Bank of America) internet-sayti. [ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan](#)

<sup>75</sup> Annual Reports. Consolidated Balance Sheet. <https://investor.bankofamerica.com/quarterly-earnings>. (Bank of America) internet-sayti. [ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan](#)

shuning asosida ularning investitsion jozibadorligi oshadi. Pirovard natijada, tijorat banklari va boshqa kredit institutlarining mazkur qimmatli qog'ozlarga bo'lgan qiziqishi kuchayadi va ularning kreditlash salohiyati pasayadi. Bu esa, o'z navbatida, kreditlarning foiz stavkalarining oshishiga olib keladi. Agarda foiz stavkalarining shu

taxlitda o'sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatli qog'ozlarni sotib olishi mumkin. Yevropa Markaziy banki (YeMB) "yevrohudud"dagi tijorat banklari faoliyatini tartibga soladi.

YeMB tomonidan tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligiga nisbatan quyidagi talablar qo'yilgan (2-jadval).

**2-jadval**  
**Yevropa Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining likvidligi va to'lovga qobilligiga nisbatan talablar <sup>76</sup>, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra**

Ko'rsatkichlar	Minimal me'yoriy daraja
Birinchi darajali asosiy kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti	4,5
Birinchi darajali kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti	6,0
Regulyativ kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti	8,0
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti	1,05
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti	1,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, YeMB tomonidan tijorat banklari kapitalining yetarligiga nisbatan uchta prudensial talab, likvidligiga nisbatan esa, ikkita prudensial talab o'rnatilgan.

Bazel qo'mitasi tomonidan 2004-yilda kredit riskini baholash bo'yicha "standartlashgan yondashuv" deb nomlangan yangi yondashuv taklif qilindi (3-jadval).


**3-jadval**  
**Kredit riskini baholash bo'yicha standartlashgan yondashuv<sup>77</sup>**

Kredit reytingi	AAA AA –	A+ A –	VVV+ VV–	VV– dan past	Reyting siz
Risk darajasi	20%	50%	100%	150%	100%

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, standartlashgan yondashuvga ko'ra, kredit riskining darajasi kredit olgan mijozning kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilanadi: mijozning kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, kredit riski darajasi shunchalik past bo'ladi. Standartlashgan yondashuvga ko'ra 150% risk darajasiga ega bo'lgan kreditlar paydo bo'ldi. Ya'ni, kredit reytingi VV – dan past bo'lgan mijozlarga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil etadi. Kredit reytingi mavjud bo'lmagan mijozga berilgan kreditning risk darajasi 100% qilib belgilangan. Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, shu jumladan, Germaniya va Fransiyada kredit riskini baholash bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan Bazel-II standartida tavsiya etilgan standartlashgan yondashuv bank amaliyotiga qabul qilingan. Ushbu yondashuvda kredit riskining darajasi kredit oluvchining kredit reytingiga bog'liq ravishda belgilanadi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo'ladi. Masalan, suveren kredit reytingi AAA dan AA gacha bo'lgan davlatlarning hukumatlariga va Markaziy banklariga berilgan kredit risk darajasi nolga teng, mazkur davlatlardagi kredit tashkilotlariga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga, yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning risk darajasi 20 foizga teng.

Suveren kredit reytingi V – dan past bo'lgan davlatlarning hukumatlariga, markaziy banklariga, kredit tashkilotlariga va yuridik shaxslariga berilgan kreditlarning risk darajasi 150 foizga teng. Tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.



**3-rasm. Doychebank va Paribas bankda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi, foizda<sup>78</sup>**

<sup>76</sup> European central bank: Regulatory framework for more resilient banks//<http://www.ecb.eu.org/publications>

<sup>77</sup> International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: a Revised Framework. Available at: <http://www.bis.org/publ/bcbs118.htm>.

<sup>78</sup> Doychebank va Paribas bankning 2017-2021-yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Doychebankda 2017-2021-yillarda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan xazira ajratmalari darajasi juda past bo‘lgan. Faqat, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkichning darajasi 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada (0,2 f.p.) oshgan. Mazkur holatlar kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Paribas bankda 2017-2021-yillarda kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan xazira ajratmalari darajasi juda past va barqaror bo‘lgan. Bu esa, kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Doychebank va Paribas bankda tahlil qilingan davr mobaynida kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan xazira ajratmalarining juda past va barqaror darajada bo‘lganligi tasniflangan kreditlarning optimal tarkibini shakllantirilganligidan dalolat beradi.

YeMB tomonidan tasniflangan kreditlarning quyidagi toifalari bo‘yicha xaziralar tashkil etish talabi qo‘yilgan:

\*substandart kreditlar – 20 %

\*shubhali kreditlar – 50%

\*umidsiz kreditlar – 100 %.

Tasniflangan kreditlarning qolgan 2 toifasi bo‘yicha (standart va yaxshi kreditlar) xazira tashkil qilinmaydi. YeMBning talabi bo‘yicha kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan xazira ajratmalari summasi to‘liq tijorat bankining xarajatiga olib boriladi. YeMB muddati o‘tgan kreditlar va foizlarni tijorat banklarining balansidan chiqarish bo‘yicha normativ talablar belgilamagan, ushbu masala to‘liq tijorat banklarining boshqaruv organlari vakolatiga kiradi.

#### 4-jadval

##### AQSh bank amaliyotida ssudalarni berish bo‘yicha vakolatlar<sup>79</sup>

Ssudalar limiti	Ta‘minlangan ssudalar	Ta‘minlanmagan ssudalar va overdraftlar	Insayderlarga beriladigan ssudalar	Bank xodimlariga beriladigan ssudalar
Ssudalarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan yuqori limiti	Bankning ssuda qo‘mitasi	Bankning ssuda qo‘mitasi	Bankning Direktorlari kengashi	Ijro qo‘mitasi
5 mln. AQSh dollari	Mintaqaviy ssuda qo‘mitasi va ikkita mintaqaviy prezident	Mintaqaviy ssuda qo‘mitasi va ikkita mintaqaviy prezident		
2 mln. AQSh dollari	Mintaqaviy ssuda qo‘mitalar	Mintaqaviy ssuda qo‘mitalar		
500 ming AQSh dollari	Mintaqaviy prezidentlar	Mintaqaviy prezidentlar		
250 ming AQSh dollari	Kredit inspektorlari	Kredit inspektorlari		

4-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, ssuda summasi ko‘payib borishi bilan mintaqaviy prezidentlari vakolat doirasi torayib, ssuda qo‘mitalarining vakolat doirasi kengayadi. Summasi 5 mln AQSh dollariga teng bo‘lgan ssudalar berish to‘g‘risidagi qaror mintaqaviy ssuda qo‘mitalari tomonidan qabul qilinadi. Summasi 250 ming AQSh dollari bo‘lgan ssudalari berish masalasini kredit inspektorlari hal qiladi.

Insayderlarga ssudalar berish masalasi bankning direktorlar kengashi tomonidan qabul qilinadi. Buning sababi shundaki, Bazel

qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan samarali bank nazoratlari prinsiplari ko‘ra, tijorat banki insayderlarga imtiyozli shartlar asosida kreditlar berishga haqli emas.

Shuning uchun direktorlar kengashi insayderlarga beriladigan har qanday summadagi kreditlarni nazorat qilishga majbur. AQShda tijorat banklari aktivlarining sifatini baholashda Markaziy bank “CAMELS” reyting tizimidan foydalanadi (5-jadval).

#### 5-jadval

##### “CAMELS” reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining sifatini baholash mezonlari<sup>80</sup>

Reyting	Mezonlar
1 – kuchli	5 foizgacha
2 – qoniqarli	5% – 15%
3 – o‘rtacha	15% – 30 %
4 – chegaraviy	30% – 50%
5 – qoniqarsiz	50 foizdan yuqori

5-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “CAMELS” reyting tizimida tijorat banklari aktivlarining sifati 5 foizdan 50 foizgacha va 50 foizdan ortiq bo‘lgan shkala bo‘yicha baholanadi.

Bunda, aktivlarning sifati tijorat banki riskka tortilgan aktivlar summasini jami kapitalga bo‘lish va olingan natijani 100 foizga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Aktivlarning sifati ko‘rsatkichi 50 foizdan yuqori bo‘lgan banklar beshinchi toifaga kiritiladi va ularning aktivlari sifati qoniqarsiz, deb baholanadi. Aktivlarining sifati qoniqarsiz deb baholangan banklarga nisbatan jarima choralarini qo‘llaniladi.

<sup>79</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. – М.: LENAND, 2019. – S. 258

<sup>80</sup> Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

Doychebank kreditlarining tarmoq tasnifi<sup>81</sup>, mln. yevro

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	655	676	637	647
Konchilik va karer qazish	3,699	3,027	3,145	3,006
Ishlab chiqarish	30,966	30,199	28,040	36,820
elektr, gaz, bug' va konditsioner ta'minoti	3,555	4,577	3,765	4,819
Suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlash	895	843	681	681
Qurilish	4,421	4,110	4,708	4,651
Ulgurji va chakana savdo, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash	21,871	22,568	22,023	22,444
Tashish va saqlash	6,548	5,610	6,382	6,067
Turar joy va oziq-ovqat xizmatlari ko'rsatish faoliyati	2,094	2,633	2,514	2,272
Axborot va aloqa	5,281	6,575	6,240	7,387
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	93,886	98,434	90,220	111,239
Ko'chmas mulk faoliyati	35,153	45,153	37,946	43,220
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	7,020	7,430	7,946	7,022
Ma'muriy va yordamchi xizmat ko'rsatish faoliyati	7,921	7,063	9,568	10,324
Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta'minot	10,752	8,012	7,413	7,076
Ta'lim	698	327	205	225
Inson salomatligi xizmatlari va ijtimoiy ish faoliyati	3,618	3,631	3,530	4,005
San'at, madaniy dam olish	951	867	951	1,068
Boshqa xizmat faoliyati	5,328	5,766	6,165	5,261
Uy xo'jaliklarining ish beruvchi sifatidagi faoliyati, uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari uchun tabaqalanmagan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati	188,494	196,732	205,331	212,436
Ekterritorial tashkilotlar va organlarning faoliyati	25	3	1	1
<b>Jami kreditlar</b>	<b>433,832</b>	<b>454,235</b>	<b>447,410</b>	<b>490,671</b>

6-jadval ma'lumotlari ko'rinadiki, Doychebankning kredit portfeli tarmoq xususiyatiga ko'ra to'liq diversifikatsiya qilingan.

**Xulosa.** Tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishda xorij tajribasi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

Diskont kreditlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular tijorat banklari uchun foizli daromad manbalaridan biri bo'lsa, Markaziy bank tomonidan beriladigan diskont kreditlari tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda, kreditlarning foiz stavkalari darajasiga ta'sir etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy banklarning hisob stavkasi ular tomonidan berilgan diskont kreditlarining foiz stavkasi bo'lib, muhim makroiqtisodiy indikator hisoblanadi. Markaziy bank hisob stavkasining o'zgarishi milliy ssuda kapitalari bozorining stavkalariga, milliy valyutaning kursiga va mamlakat to'lov balansining holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy banklar AQSh banklari bilan vakillik munosabatlari o'rnatishda xorijiy bankning overdraft kreditidan foydalanishga ruxsat olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, overdraft krediti "Nostro" vakillik hisob raqamida yuzaga keladigan vaqtinchalik valyuta yetishmasligi muammosini hal etishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Xorijiy bank, valyuta mablag'lari yetishmasligi yuzaga kelganda, vakil bankni belgilangan limit doirasida zudlik bilan kreditlaydi. Kredit olgan bankning "Nostro" vakillik hisobraqamiga pul kelib tushishi bilan berilgan overdraft krediti qaytariladi. Muammo shundaki, qator davlatlarda overdraft krediti berish qonun yo'li bilan ta'qiqlangan. Ammo AQShda bunday ta'qiq mavjud emas, aksincha, overdraft usulida kreditlash amaliyoti takomillashgan.

AQShda overdraft kreditlash bilan bir vaqtning o'zida kontokorrent kreditlash shakli ham rivojlangan. Shunisi xarakterliki, kreditlashning kontokorrent shaklida mijozning joriy hisob raqami yopiladi va uning o'rniga kontokorrent hisob raqami ochiladi. Qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxira stavkasining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining likvidlik darajasini oshishiga va umumiy talabni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Aksincha, mazkur stavkalarining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini pasaytiradi va umumiy talabning qisqarishiga sabab bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlar tajribasini tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki, ularda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini

belgilashda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Bu esa, mazkur mamlakatlarda makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining past ekanligi, ayrim mamlakatlarda esa, iqtisodiyotning retsessiya holatida ekanligi bilan izohlanadi. Buning ustiga, taraqqiy etgan mamlakatlarda inflyatsiya muammosi mavjud emas. O'zbekiston Respublikasida Markaziy bankning diskont va lombard kreditlari mavjud bo'lmagan bir sharoitda milliy ssuda kapitalari bozori shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarning mavjudligi uning tijorat banklari moliyaviy xizmatlari baholarini tartibga solish borasidagi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Buning sababi shundaki, depozitlar va kreditlarning bozor stavkasi milliy ssuda kapitalari bozorida shakllanadi va ana shu bozorgina kredit resurslariga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatni aniq baholash imkonini beradi. Milliy ssuda kapitalari mavjud bo'lmagan sharoitda Markaziy bankning diskont va lombard stavkalari orqali tijorat banklari kreditlarining bahosiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish mumkin.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining faoliyatini tartibga solishda xorij tajribasi qo'llash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasini o'rganish natijalari ko'rsatdiki, milliy ssuda kapitalari bozori tijorat banklari depozitlari va kreditlarining bozor baholarini aniqlash imkonini beradi va Markaziy bank ularning bahosiga ta'sir ko'rsatish uchun bozordagi talab va taklifni baholash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, Markaziy bank ssuda kapitalari bozorida o'zining kredit resurslari bilan ishtirok etadi. Markaziy bankning majburiy zaxira siyosati va qayta moliyalash siyosati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mutanosiblikni ta'minlash maqsadida ularning darajalarini monand ravishda o'zgarishini ta'minlash kerak. Buning sababi shundaki, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining pasayishi bank tizimining likvidligini oshishiga va tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasayishiga xizmat qiladi. Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarining pasayishi ham bank tizimining likvidligini oshishiga xizmat qiladi. Chunki, majburiy zaxira stavkasining pasayishi natijasida hosil bo'lgan pul mablag'lari tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisob raqamlarida

<sup>81</sup> Loans. Consolidated Financial Statements. Deutsche Bank. Annual Reports// www.deutsche.bank/db.com



paydo bo'ladi. Shuningdek, majburiy zaxira stavkalarining pasayishi tijorat banklariga muddatli va jam'arma depozitlariga to'lanadigan foizlarning stavkalarini oshirish imkonini beradi. Bu esa, banklarda depozitlarning ko'payishiga va shuning asosida ularning kreditlash

imkoniyatining kengayishiga olib keladi. Demak, har ikkala monetar instrument pasaytirilganda bir xil samaraga erishiladi. Shu sababli, ularning bir-biriga monand o'zgarishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"gi farmoni/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.

2. Мишкин Ф. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО "И.Д. Вильямс", 2013. – С. 486–488.

3. Murodova M. Central of the bank monetary and credit policy and its macroeconomics importance //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – P. 416–423.

4. AQSh Kongressi tomonidan AQSh FZTga bildirilgan ishonch va majburiyat hisoblanadi. Ushbu ishonch va majburiyat "AQSh Federal Zaxira Tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq (1913-yil), AQSh Federal Zaxira Banki Direktorlar Kengashi AQSh Federal Ochiq Bozor Qo'mitasi bilan birgalikda AQSh iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida samarali monetar siyosat olib borilishini muvofiqlashtirishga mas'ul organlar hisoblanishadi. Shuningdek, AQSh FZTning boshqa funksional majburiyatlari ham borki, ular moliyaviy tizim barqarorligini oshirish (4-bo'lim); moliyaviy muassasalar hamda ular faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish (5-bo'lim); to'lov va hisob-kitob tizimining xavfsizligi hamda samaradorligini oshirish (6-bo'lim); iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va jamiyatni rivojlantirishga ko'maklashish (7-bo'lim) hamda barqaror faoliyat yuritadigan moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning farovonligini ta'minlashdir.

5. Мишкин Ф. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО "И.Д. Вильямс", 2013. – С. 483–484.

6. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki).

7. Forrest A. Likelihood Approaches to Low Default Portfolio//Workshop on Financial Engineering 2009. – New Jersey: World Scientific, 2010. – pp. 43–63.

8. Чекулаев М. Загадки и тайны опционной торговли. М.: ИК Аналитика, 2001. – С. 10.

9. Black F., Scholes M. The pricing of options and corporate liabilities // The Journal of Political Economy. May – June, 1973. Vol. 81 (Issue 3). – P. 637–654.

10. <https://www.federalreserve.gov> sayti (AQSh Federal zaxira tizimi) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

11. Annual Reports. Concolidated Balance Sheet <http://www.bankofamerica.com> (Bank of America) internet-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

12. Annual Reports. Concolidated Balance Sheet. <https://investor.bankofamerica.com/quarterly-earnings>. (Bank of America) internet-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

13. European central bank: Regulatory framework for more resilient banks//<http://www.ecb.eu.org/publications>

14. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: a Revised Framework. Available at: <http://www.bis.org/publ/bcbs118.htm>.

15. Doychebank va Paribas bankning 2017-2021-yillar yakuni bo'yicha e'lon qilingan moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

16. В. М. Усокин. Современный коммерческий банк. Управление и операции. Издательство: ЛЕНАНД, 2019. – С. 258

17. Supervision and Regulation. CAMELS rating system. <https://www.federalreserve.gov>.

18. Loans. Consolidated Financial Statements. Deutsche Bank. Annual Reports// [www.deutsche.bank@db.com](http://www.deutsche.bank@db.com)